

YOSHLAR ORASIDA GENDER TENGLIGI VA MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH

Yarilqasimova Nasima Maqset qizi

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti

"Gidromelioratsiya" fakulteti 2-bosqich talabasi

email: nasimayarilqasimova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18678086>

Annotatsiya: Ushbu maqola gender tengligi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik, jamiyatda erkak va ayollarning teng huquqlarga erishishi tushunchalari haqida so'z yuritilgan. Maqolada gender tengligini ta'minlash bo'yicha mavjud yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yuritilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, xalqaro tajribalar, ayollar va erkaklar huquqlari, milliy amaliyot, huquqiy islohatlar, xalqaro normalar, bugungi kunda olib borilayotkan islohatlar.

Аннотация

Данная статья посвящена проблеме гендерного равенства. В ней рассматриваются вопросы равенства между мужчинами и женщинами, а также понятия достижения равных прав мужчин и женщин в обществе. В статье проанализированы существующие подходы к обеспечению гендерного равенства. Также рассматриваются вопросы формирования и развития гендерной культуры среди молодежи.

Ключевые слова: Гендерное равенство, международный опыт, права женщин и мужчин, национальная практика, правовые реформы, международные нормы, проводимые в настоящее время реформы.

Annotation

This article is devoted to the issue of gender equality. It discusses the concepts of equality between men and women and the achievement of equal rights for men and women in society. The article analyzes existing approaches to ensuring gender equality. Issues of forming and developing gender culture among young people are also discussed.

Keywords: Gender equality, international experience, women's and men's rights, national practice, legal reforms, international standards, ongoing reforms.

Kirish

Gender tengligi ya'ni ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik-bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar hisoblanadi. Gender tenglik-jamiyatda erkaklar va ayollarning teng huquq, imkoniyat va ma'suliyatlarga ega bo'lishi demakdir. Bu tushunchalar qonun oldida tenglikni emas, balki mehnat, siyosat, madaniyat, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va oilaviy hayotda ham teng imkoniyatlar bo'lishini ifodalaydi. Shuningdek ta'lim olishda, ish bilan ta'minlanishda ham erkak va ayollar teng huquqqa ega shaxslardir. Tarixga nazar solib qaraydigan bo'lsak ko'plab mamlakatlarda ayollar va qizlar ta'lim olish, munosib mehnat qilish hamda qaror qabul qilish jarayonlarida ko'plab cheklolarga duch kelishgan. Hozirgi kunga kelib esa bunday say harakatlar kamsitishlar balki ijtimoiy adolatsizliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Shuningdek, davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois gender tenglikni ta'minlash bugungi kunda barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham so'ngi yillarda gender

tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda qator dastur qonunlar qabul qilinmoqda, unga ko'ra ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish masalalari nazarda tutilmoqda. Gender tenglikni ta'minlash maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 29-avgustda ma'qullangan hamda 2019-yil 2-sentabrda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish - bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari-davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes subyektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Yoshlar orasida gender madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, bugungi kunda jamiyatdagi tenglik masalalari asosiy vositalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tushunchalar jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Gender madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish bir qancha asosiy jihatlar bilan bog'liq. Ulardan biri ta'lim tizimida gender tengligi, oila va mahalla ro'li, amaliy va tajribaviy faoliyatlar. Inson yaralibdiki, erkak va ayollar o'rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e'tibor qaratilib kelinadi. Bugungi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilayotgan mazkur konferensiya yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarning bir qismi bo'lib, unda gender tengligini ta'minlash sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularga yechim sifatida ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, aholi o'rtasida gender qadriyatlarini targ'ib qilish, mazkur masalalar bo'yicha tajriba almashish asosiy maqsad sifatida belgilangan. So'ngi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bo'g'liq islohatlar amalga oshib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin- qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi", - deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tdi. Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ta'limda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida keskin tafovutlar kuzatilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda. Ta'limning pedagogika va gumanitar fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan xotin- qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik va huquqshunoslik sohalarida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda.[2]

Asosiy qism

Ilm-fan yoki injeneriya sohasida ayollar ishtirokining ko'rsatkichi past. Ish bilan ta'minlash, karyera, oylik maosh miqdori, yuqori lavozimlarga tayinlanish masalalarida mummolar saqlanib qolmoqda. Shunga qaramay texnika sohasida ham o'z faoliyatini yuritayotgan ayol qizlarimiz kam emas. Ayniqsa bugungi kunda globallashuv sharoitida gender

tengligi masalasi jamiyat tarraqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa ta'lim muassasalari, oliy ta'lim fakultetlari yoshlarning ijtimoiy qarashlari, kasbiy yo'nalishi va gender madaniyatini shakllantiruvchi asosiy muhit hisoblanadi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida qizlar va o'g'il bolalarning ishtiroki, ularning tanlagan yo'nalishlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim sohalar jamiyatda "an'anaviy ravishda" ma'lum bir jinsga moslashtirilgan holda qabul qilinadi, buning natijasida yoshlarning kasb tanlovi ko'pincha shaxsiy qiziqishlariga emas, jamiyat kutgan rol hamda oilaviy bosim belgilaydi. Bu esa gender tengligining to'liq ta'minlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalalarga fakultetimiz yoshlari qanday fikr bildiradi, hamda fakultetni tashkil etuvchi ayol qizlarmiz va o'g'il bolalar soni nechki foizni tashkil etishini bilish maqsadida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdik. Ushbu ko'rsatkich fakultetda gender tarkibi nomutanosib ekanini, ya'ni o'g'il bolalar soni qizlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatadi. Sohani tanlash sabablari asosiy omillar shaxsiy qiziqish, ota-ona tavsiyalari, jamiyatda talab yuqoriligini hamda moliyaviy imkoniyatlar asosida tanlaganini bildirgan.

"Gidromelioratsiya" fakulteti talabalari

Kurs	O'g'il bolalar soni.	Qiz bolalar soni	Jami:	% da
1.	114	15	129	11,6 % qizlar, 88,4 % bolalar
2.	79 ta	21 ta	100 ta	21 % qizlar, 79 % bolalar
3.	133ta	38 ta	171 ta	22,2 % qizlar, 77,8 % bolala
4.	56	24	80	30 %, qizlar, 70 % bolalar

Xulosa

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma va jadvaldagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, "Gidromelioratsiya" fakultetida tahsil olayotgan talabalar orasida gender tarkibida nomutanosiblik mavjudligi aniqlandi. Xususan, o'g'il bolalar soni qizlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini kuzatildi. Bu holat tanlangan sohaning texnik yo'nalishga ega ekanligi, jamiyatda ushbu mutaxassislikka bo'lgan talabning yuqoriligi, shuningdek, shaxsiy qiziqish va ota-onalar tavsiyalarining ta'siri bilan izohlanadi. Shu bilan birga, qizlarning ham ushbu yo'nalishda tahsil olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning faolligini oshirish gender tengligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki gender tengligi va yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi.[3]

References:

1. "Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g' risida"gi qaror.(02.09.2019)
2. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi".
3. BMT malumotlari 2020.